

Samudning kufri



11:00 / 13.03.2021 3618

Bularning barchasi, Samudni shukr va Alloh taologa ibodat qilishga yetaklamadi. Balki, ularni kufr va tug'yonga yetakladi. Ular, Allohni unutib, ato etilgan narsalari bilan xursand bo'lib: «Kim bizdan ham kuchliroq?» deyishdi. Ular hech qachon o'lmaymiz, qasrlarimiz va bog'larimizdan chiqmaymiz, deb o'yladilar. Bu qishloqqa o'lim kirmaydi va ularga yo'l topa olmaydi, deb o'yladilar. Ehtimol, ular Nuh qavmini vodiyda yashagani uchun (suvga) g'arq bo'ldi. Od qavmi pasttekis joyda bo'lgani uchun halok bo'ldi, deb o'ylashgan bo'lishi mumkin. Ular, xavfdan va o'limdan omon qoladigan joydamiz, deb o'ylashdi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad